

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ZID MA‘NOLI SO‘ZLAR YORDAMIDA
O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISH**

Teshaboyev Dilmurod Raxmadjonovich,
*Farg‘ona davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)*

Abdurahimova Gulbahor,
Farg‘ona davlat universiteti II bosqich talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18501972>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda zid ma‘noli so‘zlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada zid ma‘noli so‘zlar yordamida lug‘at boyligini oshirish, fikrlash doirasini kengaytirish va nutqiy faolligini rivojlantirish usullari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: antonim, nutq o‘stirish, lug‘at boyligi, mantiqiy fikrlash, interfaol metodlar, boshlang‘ich ta‘lim, ona tili, so‘z boyligi.

Аннотация. В данной статье освещается значение антонимов в развитии устной и письменной речи учеников на уроках родного языка и обучения грамоте в начальной школе. Кроме того, в статье анализируются методы повышения словарного запаса, расширения круга мышления и развития речевой активности с использованием антонимов.

Ключевые слова: антоним, развитие речи, словарный запас, логическое мышление, интерактивные методы, начальное образование, родной язык, лексическое богатство.

Abstract. This article highlights the importance of antonyms in developing pupils' oral and written speech in primary school mother tongue and reading literacy lessons. It also analyzes methods of enriching vocabulary, broadening the scope of thinking, and enhancing communicative activity through the use of antonyms.

Keywords: antonym, speech development, vocabulary, logical thinking, interactive methods, primary education, mother tongue, lexical richness.

Kirish. Boshlang‘ich ta‘lim davri o‘quvchilarning nutiy rivojlanishi uchun asosiy poydevor vazifasini bajaradi. O‘zbek tili leksik jihatdan omonim, antonim, sinonim so‘zlarga boy til hisoblanadi. Ular orasida antonimlar alohida ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirishda antonimlarning o‘rni beqiyosdir. Zid ma‘noli so‘zlar yordamida har bir o‘quvchi narsa va hodisalar o‘rtasidagi qarama-qarshi tushunchalarni anglab yetadi bu esa ularning dunyoqarashi va mantiqiy fikrlash doirasini kengaytiradi. Shu bilan bir qatorda so‘zlarni zid ma‘nolari bilan qiyoslab o‘rganish o‘quvchilarning xotirasida uzoq saqlanib qoladi.

Adabiyotlar tahlili. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirish masalasi tilshunos va metodist olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, K.Qosimova, S.Matchonov, X.G‘ulomova va boshqalarning ishlarida ona tili darslarida lug‘at boyligini oshirish, so‘zlar ustida ishlashning samarali usullari yoritilgan. Tadqiqotlarda antonim, sinonim va omonimlarning o‘quvchilar tafakkuri va nutqini

rivojlantirishdagi o'zni alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, N.Erkaboyevaning ishlarida antonimlarning mantiqiy fikrlashni shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy asoslab berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va kuzatish metodlaridan foydalanildi. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida zid ma'noli so'zlardan foydalanish jarayoni amaliy mashqlar asosida o'rganildi. Shuningdek, interfaol metodlar orqali o'quvchilarning nutqiy faolligi va lug'at boyligidagi o'zgarishlar tahlil qilindi. Olingan natijalar umumlashtirilib, xulosalar chiqarildi.

Tahlillar va natijalar. Inson hayotida deyarli hamma narsa bir-biriga qarama-qarshi holatlardan iborat ya'ni bizning butun faoliyatimiz zidlashlarga asoslangan. Jaloliddin Rumiy ta'kidlaganidek, har qanday "ashyo" ning qimmatini ziddi bilan ayon bo'ladi, ziddi bo'lmagan narsani ta'rif etish imkoniyatdan tashqaridadir. Qarama-qarshi ma'noli so'z va qo'shimchalar zid ma'noli so'zlar deyiladi. Zid ma'noli so'zlar doimo ikki qarama-qarshi so'zdan iborat bo'ladi. Masalan, katta -kichik, yosh-u qari, baland-past. Ular ko'proq belgi bildiradigan so'zlarda uchraydi. Zid ma'noli so'zlar nafaqat oddiy so'zlar, balki so'z bilan ibora o'rtasida ham uchrashi mumkin. Masalan, dangasa odamni ifodalovchi "yalqov" so'zi bilan juda faol va g'ayratli kishini tasvirlaydigan "yuragida o'ti bor" iborasi bir-biriga qarama-qarshi ma'noni anglatadi. Zid ma'noli so'zlar ko'proq badiiy uslubda qo'llaniladi va tazod, antiteza, kontrast uslubini yaratadi.

Meni kim ko'rsa farq etmas **xazon** birla **bahorimdan**.

Ushbu baytda xazon va bahor so'zlari tazod san'atini yuzaga keltirmoqda. Zid ma'noli so'zlar bir turkum doirasida qo'llaniladi. Masalan, *yaxshi* va *yomon* so'zlarining ikkalasi ham sifat so'z turkumiga, *kun* va *tun* so'zlarining ikkalasi ham ot so'z turkumiga tegishli. Qo'shimchalar doirasida ham antonimlik hodisasi kuzatilishi mumkin. Masalan, *gulli-gulsiz*, *mevali-mevasiz*.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishda zid ma'noli so'zlarning ahamiyati katta. Ularning asosiy ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. Lug'at boyligini oshiradi.
2. Nutqning aniqligi va ta'sirchanligini ta'minlaydi
3. Mantiqiy tafakkurni shakllantiradi va dunyoqarashni kengayishiga yordam beradi.

O'quvchilar zid ma'noli so'zlarni boshqa so'zlarga nisbatan tezda o'zlashtirib oladilar. Ular bitta so'z va uning ziddini yodlash orqali lug'at zaxirasini 2 barobarga boyitadilar. Lug'at boyliklarini shakllantirish bilan bir qatorda ularning dunyoqarashi kengayadi, mantiqiy tafakkuri rivojlanadi. Antonimlar narsa va hodisalarni bir-biriga qiyoslash, farqlash va tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Zid ma'noli so'zlar ustida ishlash o'quvchilarning passiv lug'atidagi so'zlarni faol lug'atga o'tkazishga ya'ni lug'atni faollashtirishga yordam beradi. Bizga ma'lumki xalq og'zaki ijodi xalqimizning eng bebaho boyliklaridan biri hisoblanadi. Ular orasida maqol va matallarning ahamiyati katta. Antonimlar maqol va matal janrlarida muhim uslubiy vosita sifatida faol qo'llanadi.

Masalan:

1. Yaxshidan bog‘ qolar, yomondan dog‘. Bu maqolda *yaxshi* – *yomon* antonimlari orqali insonning yaxshi amallari ezgu nom qoldirishi, yomon xatti-harakatlari esa salbiy iz qoldirishi ta’kidlanadi.

2. Yaxshi o‘zar, yomon to‘zar. Mazkur maqolda *o‘zar* – *to‘zar* zid ma’noli so‘zlari yordamida ijobiy va salbiy holatlarning oqibati qarama-qarshi tarzda ifodalangan.

3. Achchiq haqiqat shirin yolg‘ondan yaxshiroq. Bu maqolda *achchiq* – *shirin* hamda *haqiqat* – *yolg‘on* zid ma’noli so‘zlari yordamida rost gapning ahamiyati har qanday yolg‘ondan ustun ekani ko‘rsatib beriladi.

4. Ko‘p bilgan oz so‘zlar, oz so‘zlasa-da soz so‘zlar. Maqolda *ko‘p* – *oz* zidligi orqali dono insonning kam gapirib, lekin mazmunli, o‘rinli so‘zlashiga ahamiyat qaratiladi.

Boshlang‘ich sinfda antonimlar o‘quvchilarga faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki turli amaliy mashqlar orqali o‘rgatiladi. Dars jarayonida bajariladigan topshiriqlar mavzuning mazmunini chuqurroq anglashga va mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘quvchilar o‘qituvchisidan nazariy o‘rgangan bilimlarini dars jarayonida turli mashqlar, topshiriqlar, interaktiv metodlar yordamida mustahkamlashadi.

Mavzuni mustahkamlash jarayonidagi dastlabki bosqichi- matn ichidan zid ma’noli so‘zlarni topish mashqi hisoblanadi. Matnni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar antonimlarni aniqlash ko‘nikmasini shakllantiradilar va ularning so‘z boyligi ortadi.

1. Berilgan so‘zlarga antonimlarni tanlash.

O‘quvchilarga avvalo so‘zlar beriladi va ularga antonim topish vazifasi qo‘yiladi.

Masalan:

oq – ..., dangasa – ..., dono – ..., kasal – ...

2. Zid ma’noli so‘zlar yordamida gap tuzish.

O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga topshiriq qilib so‘zlar beriladi. O‘quvchilar shu so‘zlarga antonim topishadi va hu so‘zlarni qatnashtirib gaplar tuzishadi.

3. Berilgan gapga antonim topish

O‘quvchilarga bo‘sh joylari bor gaplar beriladi va ular mazmunga mos antonimlarni qo‘yadilar.

Masalan:

“*To‘g‘ri odam ... so‘zdan or qilur. Yosh kelsa ishga, ... ketsa oshga. Yaxshi gap – moy, ... gap – loy. Gapni oz so‘zla, ishni ... ko‘zla.*”

4. Berilgan maqol va matallardan zid ma’noli so‘zlarni aniqlash.

O‘quvchilar berilgan maqollardan zid ma’noli so‘zlarni aniqlashadi. Masalan:

Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda.

Ushbu maqolda “katta” va “kichik” so‘zlari qarama-qarshi ma’noga ega – zid ma’noli so‘zlar sanaladi.

Ushbu mashqlar yordamida o'quvchilarning so'z boyligi sezilarli darajada oshadi, so'zlarni juftlash, gap tuzish va bo'sh joylarni to'ldirish mashqlari orqali bola narsa-hodisalarni tahlil qilish va umumlashtirishni o'rganadi, maqollardagi antonimlarni tushunish orqali o'quvchi xalq donoligiga yaqinlashadi. O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun darslarda faqatgina darslik bilan cheklanib qolmay interaktiv usullardan foydalanish kerak. Masalan, "Venn diagrammasi" metodi, "Klaster" usuli, Interaktiv o'yinlar va AKT, "Zanjir" usuli. Interaktiv metodlar o'quvchilarning nutqini faollashtirishga yordam beradi.

Xulosa. Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning mustahkam asosi hisoblanadi. Bu davrda bolaga to'g'ri yondashish, uning nutq va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, lug'at boyligini oshirish uchun juda muhimdir. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinfda antonimlarni o'rganish bola nutqini rivojlantirishning muhim poydevoridir. Zid ma'noli so'zlar bolaga dunyo hodisalarini solishtirish, ularni farqlash va o'z fikrini so'zlar orqali to'g'ri ifodalash imkonini beradi. Darslarda turli metodlar, masalan "Venn diagrammasi", "Klaster", "Zanjir" va kompyuter yoki interaktiv o'yinlar yordamida ishlash, bolalarni passiv yodlashdan chiqaradi. Ular so'zlarni nutqiy vaziyatlarda ongli ravishda ishlatishni o'rganadilar, bu esa nutqiy faollikni oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: NOSHIR, 2009. 314 b.
2. Nargiza Erkaboyeva. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. – Toshkent: LESSONPRESS, 2017, 95-112-betlar